



## THE IMPORTANCE OF FORMING A CULTURAL WORLD VIEW IN FUTURE TEACHERS

### BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Xolbo 'tayeva Dilfuza Usmon qizi

Qori Niyoziy Nomidagi Uzpfiti 1 Kurs Tayanch Doktoranti

#### Annotation

This article talks about the methodological bases, conditions, and possibilities of forming the professional worldview of future teachers. Also, the features that are important for the future pedagogue and need to be taken into account will be explained.

**Keywords:** Pedagogue, future teacher, profession, outlook, education, essence, reflexive activity, educational effectiveness, theoretical basis; **Annotatsiya**

Ushbu maqolada bo`lajak o`qituvchilarda kasbga doir dunyoqarashni shakllantirishning uslubiy asoslari, shart-sharoitlari, imkoniyatlari to`g`risida so`z boradi. Shuningdek bo`lajak pedagog uchun muhim bo`lgan va inobatga olish zarur bo`lgan xususiyatlar haqida so`z yoritib beriladi.

**Kalitso‘Zlar:** Pedagog, bo`lajak o`qituvchi, kasb, dunyoqarash, ta`lim, mohiyati, refleksiv faoliyat, ta`lim samaradorligi, nazariy asos;

#### KIRISH

Ma'lumki mamlakatimizda ilg`or xorijiy tajribalar asosida uzlucksiz ta`lim tizimi uchun bo`lajak yosh o`qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta`lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo`naltirilgan ta`lim muhitini yaratish bo`yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Kasbiy dunyoqarash – zaruriy kasbga doir bilim, ko`nikma, shuningdek malakalarni o`zlashtirish asosida yuzaga keluvchi inson ijtimoiy kompetentligining ma`lum bir ko`rinishi sifatida tavsiflanadi.

#### ASOSIY QISM

Dunyoqarash-bizni o`rab olgan borliq nima, u qanday rivojlangan, tabiatda qanday inson o`rin tutadi, uning ongi qanday paydo bo`ldi va kamol topdi, jamiyatning



Website:

<https://wos.academiascience.org>



yaralish tarixi qanday, inosniyat turmush darajasini qanday qilib yaxshilash mumkin va shu kabi masalalarga kishilarning turlicha qarashlari, munosabatlaridir. Inson o`z faoliyatida ma`lum ilmiy bilimlardan, qonuniyatlardan, tushuncha va g`oyalardan foydalanadi. Ana shu bilimlarga asoslanib, tabiat, jamiyat va inson tafakkuri hodisalarini baholaydi, ularni o`ziga talqin etib, ma`lum xulosalarga keladi.

Har qanday odam o`zining yashashdan maqsadi nimaligini, hayotning ma`nosini bilishga intiladi. Bu insonning ijtimoiy ehtiyojidir. Ana shu ehtiyoj o`quvchiga ham xos bo`lib, u o`zining shu ehtiyojini qondirish bilan tevarak-atrof hayoti to`g`risida bilimlarga, tabiat va jamiyat haqidagi mulohazalarga ega bo`la boshlaydi. Umuman shaxsning turli xil ehtiyojlari uning faolligini ta`minlaydi, qiziqishlari, mayl va talablarini belgilaydi. Ana shu ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyat shaxsning e`tiqod va qarashlari, kundalik xulq-atvor motivlarini hosil bo`lishiga yordam beradi. Qarashlar va e`tiqodlar tizimi bo`lgan dunyoqarashning mohiyatidan shunday xulosa chiqarish kerakki, o`quvchining va umuman maktabning ishida muayyan tizim bo`lgandagina ilmiy dunyoqarash tarkib topishi mumkin. Asta-sekin to`plangan bilimlar yozma shaklda avlodlardan-avlodlarga qoladi. Turli davrlarda o`qimishli, ziyoli, bilimdon kishilar dunyo ilm-faniga, umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo`shtalar.

Avvalo ta`kidlash lozimki, ilmiy dunyoqarash turli kishilarda, kasb egalarida turlicha-to`larok, mukammolroq, chuqurroq yoki yuzakiroq, chalaroq, sayoz va xomroq bo`lishi mumkin. Bunda kishilar tomonidan oldingi ajdoddardan meros bo`lgan ma`naviy boyliklarni, bilimlarni va hozirgi mavjud bilimlarni o`zlashtirish darajalari muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi sharoitda kishilarning ongi, dunyoqarashida yangicha fikrash, yashashni tarbiyalanmasa, mustaqillikning g`oyasi, mazmuni va mohiyatini tushuntirilmasa, ko`zda tutilgan natijaga erishib bo`lmaydi.

Shuning uchun hozirgi eng muhim dolzarb masala xalqning ongidagi eskicha dunyoqarashni o`zgartirish iqtisod, siyosat, madaniyat jabhalarida yangicha fikrashni o`rgatish, mustaqillikni mustahkamlash sharoitida o`z haq-huquqlarini anglash va noxush holatlarni hayotga kirib qolmasligiga, unga qarshi kurashishga tayyor turadigan ilmiy dunyoqarashli shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Bo`lajak o`qituvchilarda refleksiv yondashuv orqali madaniy dunyoqarashni shakllantirish ko`nikmalarning shakllanish jarayoni turli darajadagi samaradorlikka ega bo`lishi bilan bir qatorda bilish faoliyatining har qanday turida o`quvchi shaxsini rivojlantirish imkoniyatiga ega. Bu o`rinda maqsadga muvofiq keladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash dastur materiallari bilan o`zaro muvoifqlidka amalga oshirilishi kerak. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, muayn pedagogik shar-



sharoitlarning yaratilishi o'smir yoshdagi o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bunda o'qituvchining ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan faoliyati muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan faoliyati ichki boshqaruvni ifodalab, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Jahonda ta'lim shaxs kamolotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat rivojlangan mamlakatlari tomonidan 2030 ylgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "bilimning mustahkam poydevoriga ega bo'lish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini ko'chaytirish" dolzarb vazifa sifatida qayd etilgan. Bu esa umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda refleksiv yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchilarda madaniy dunyoqarashni shakllantirishni orqali ularda ijodiy, tanqidiy tafakkur, o'z-o'zini baholash, tarixiy voqelikni anglash, o'z faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Birinchi navbatda, o'qituvchilar bilan o'quvchilarning refleksiv faoliyati va faolligi darajasining ta'lim-tarbiya jarayonlariga ta'siri yuqori bo'lishi pedagoglar tomonidan ta'kidlanayotgan bugungi kunda o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni nazariy, metodik jihatdan asoslash zaruriyati kuchaymoqda. Xalqaro miqyosdagi pedagogik tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish jarayonini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish ta'lim samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'qituvchilik kasbini tanlashda nafaqat bu kasbni sevish, bolalar bilan muloqotga kirishish istagi, balki, kasbiy faoliyatning shaxsga nisbatan qo'yadigan jismoniy, psixologik va ijtimoiy talablar uning imkoniyatlari doirasida bo'lishi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarini nazariy asoslash va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarova O`M., Hayitboev M., Nishonov S.M. Pedagogika. – T.: Talqin, 2018. – 287 b.
2. Ta`limni axborotlashtirish - 2018: Xalqaro ilmiy-metodik konferentsiya materiallari (Kostroma, 2018 yil 14-17)
3. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2013. – 192 b.
4. Ismoilova N., Abdullaeva D. Trening o`tish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019. – 96 b.
5. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O‘quv-metodik qo’llanma. 2021. Buxoro 1-164.